

**Normamatova Nazira Alijon qizi**  
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti  
**Karimberdiyeva Dildora G‘ulomjon qizi**  
Guliston davlat pedagogika instituti  
Ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti talabasi

---

## **IJTIMOY PSIXOLOGIYADA NIKOH OLDI YETUKLIKNI SHAKLLANTIRISH MUAMMOSINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada biz hozirda mavjud bo'lgan, inson bor ekan u bilan barhayot, u bilan davom etuvchi hodisa, evolyutsiyaning boshlanish nuqtasi, hayotning bardavomligi surati bo'lgan nikoh mavzusida fikr yuritamiz. Maqolamiz mavzusida aytilganidek, unda psixologiya fanining ijtimoiy psixologiya bo'limiga kiritilgan nikoh va nikoh oldi yetuklik, nikoh tuzilishi, shartlari, bundan tashqari oila psixologiyasiga oid ma'lumotlarni keltirib o'tamiz. Bugungi kunda yoshlarimizning nikoh nimaligi, nikoh tuzilishi haqidagi qarashlarining qanchalik o'rinli ekanligi, fikr va mulohazalari bilan tanishamiz. Nikoh oldi yetuklikni shakllantirish muammosining ilmiy-nazariy asoslari to'g'risidagi bir nechta psixologik qarashlarni tahlil qilamiz. Nikoh tuzilishi haqidagi yangi qonunlarni o'rganib, ayni vaqtdagi ijrosini, yutuq va kamchiliklarini tanqidiy fikr va mulohazalarimiz bilan yanada kengroq mushohada qilamiz.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy psixologiya, nikoh, oila, turmush, nikoh yoshi, evolyutsiya, nikoh oldi yetuklik, inqiroz, moddiy kuch, ma'naviy kamolot.

**Abstract:** In this article, we will reflect on the topic of marriage, which exists now, is alive with man as long as he exists, is a phenomenon that continues with him, the starting point of evolution, a picture of the sustainability of life. As mentioned in the topic of our article, we will provide information about marriage and pre-marital maturity, structure and conditions of marriage, as well as family psychology included in the social psychology department of psychology. Today, we will get acquainted with the opinions and opinions of our young people about what marriage is, how reasonable their views are about the structure of marriage. We will analyze several psychological views on the scientific-theoretical basis of the problem of the formation of premarital maturity. By studying the new laws on the structure of marriage, we will observe their implementation, achievements and shortcomings more widely with our critical thoughts and opinions.

**Key words:** social psychology, marriage, family, marriage, marriage age, evolution, premarital maturity, crisis, material power, spiritual maturity.

**Аннотация:** В этой статье мы поразмышляем над темой брака, который существует сейчас, жив с человеком до тех пор, пока он существует, является явлением, продолжающимся с ним, отправной точкой эволюции, картиной устойчивости жизни. Как уже говорилось в теме нашей статьи, мы предоставим информацию о браке и добрачной зрелости, структуре и условиях брака, а также семейной психологии, входящей в состав кафедры социальной психологии. Сегодня мы познакомимся с мнениями и мнениями нашей молодежи о том, что такое брак, насколько обоснованы их взгляды на устройство брака. Проанализируем несколько психологических взглядов на научно-теоретическую основу проблемы формирования добрачной зрелости. Изучая новые законы об устройстве брака, мы своими критическими мыслями и мнениями шире увидим их исполнение, достижения и недостатки.

**Ключевые слова:** социальная психология, брак, семья, брак, брачный возраст, эволюция, добрачная зрелость, кризис, материальная власть, духовная зрелость.

---

Oila eng qadimgi ijtimoiy birlashmadir. Oila ijtimoiy institut deb ham ataladi. Oila - bu jamiyatning ajralmas bo'lagi va aynan kichik jamiyatning o'zidir. Insoniyat tarixi davomida oila bo'lib shakllangan va barcha ijtimoiy holatlar oilaviy qadriyatlar, urf-odatlar zamirida ularga zid kelmaydigan shaklda rivojlanib borgan. Zero, oila bir inson uchun yangi umrning boshlanishi, orzular muqaddimasidir. Yana insonlar baxtning suratini oilasida ko'radi, baxt nima degan savolga oilaviy baxtiyorlikni izohlab beradi. Nikoh bu oilaning boshlanish nuqtasi, ilk qadamidir. Nikoh arabcha so'z bo'lib, "qo'shilish", "birga yashash", kabi turli ma'nolarni anglatadi. Nikoh - bu ikki jinsi vakillarining roziligi asosida tuzilgan ittifoq. Nikoh ishlari axloq normalari va qonun hujjatlari bilan doimiy kuzatilib boriladi. Nikoh tuzish shartlari har bir millatda turlicha bo'lib, yoshi, irqi, xohish-istagi, kelib chiqishiga ko'ra tafovutlanishi mumkin. Bizning xalqimiz nikohga boshqacha mehr bilan qaraydi, hurmat qiladi, sharaflaydi. Nikoh tuzish dinimizda shart qilib qo'yilgan farzdir.

Davlatchiligimizda ham nikoh tuzishga doir bir qancha huquqiy-me'yoriy hujjatlar bor. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-moddasida ta'kidlanishicha, "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir. Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi." Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi 1998-yil sentabrdan kuchga kirgan me'yoriy hujjat bo'lib unga ko'ra, diniy rasm-rusumlar bilan tuzilgan nikoh yuridik kuchga ega emas va nikoh tuzilishi uchun Nikoh tuzilganligi haqida guvohnomaning mavjud bo'lishi qat'iy belgilandi.

O'zbekiston Respublikasida nikoh yoshi 18 yosh qilib belgilangan, faqat ba'zan uzrli sabablarga ko'ra ya'ni nikoh tuzuvchilarning iltimosi, homiladorlik, shoshilinch vaziyatlardagina 1 yilga qisqartirilishi mumkin. Nikoh tuzuvchilardan loaqal bittasi boshqa nikohda bo'lsa, qarindoshlik holatlarida, yoki ulardan birining ruhiy kasalligi bo'lsa sud tomonidan muomalaga layoqatsuz deb topiladi va nikoh tuzish haqidagi iltimos rad etiladi. Nikohlanuvchilarning tibbiy ko'rikdan o'tishi shart etib qo'yilgan.

Nikoh yoshlarning roziligi asosiga quriladi. Bunda har ikki tomon bir-birini yaxshi bilgan, avval muomala qilib ko'rgan, sinalgan, bir-biriga ham jismonan ham ma'nan mos kelishiz, psixologik tomondan paralelligi ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Psixologiya fanining oila psixologiyasi bo'limida nikoh qurishga shartlari atroflicha yoritib berilgan. Oila va nikoh haqidagi qarashlarni qadimgi g'arb faylasuf olimlari Aristotel, Arximed, Pifagor shuningdek olimlar Kant, Gekkelning ilmiy-amaliy nazariyalarini o'rganishimiz mumkin. Shvetsariyalik olim I. Baxovenning "Onalik huquqi" asarida, L. Morganning asarlarida nikoh evolutsiyasi haqida nazariyalar bayon etilgan.

Nikoh qurish bo'sag'asida turgan yoshlar o'zaro kelishuv asosida oila qurishi ancha foydali bo'lib, ular mayda detallargacha kelishib olishlari zarur. To'ydan so'ng kelinning ishlashi, kuyovning kelinning fikrlarini qo'llab-quvvatlashi yoki kelin kuyovni qo'llab-quvvatlashi, qilinadigan ishlarni bo'lishib olishi katta ahamiyatga ega va bu keyinchalik ularning munosabatlarini mustahkamlaydi. Nikoh oldi yetuklikni shakllantirish uchun avvalo yoshlarda ma'naviy kamolotni shakllantirish zarur. Chunki nikoh axloq normalari asosida tuziladigan yuridik ittifoqdir.

**Muhokama:** Bugungi kun yoshlari nikoh nimaligi, uning mohiyati, tuzilishi, shartlari, qiyichiliklari bilan qanchalik tanish ekanligi bilan qiziqdik. Natijalarga ko'ra, 17-21 yoshlardagi

yigit-qizlar sevishib oila qurishni; 22 dan 27-28 yoshgacha bo'lganlar esa o'zaro kelishuv asosida oila qurishni ma'qullashdi. Sevish-sevilish albatta yaxshi, lekin hayot qiyichiliklarida kelishib keta olish, har qanday vaziyatda ham bir-biriga yelkadosh, ko'makdosh bo'lish o'ta ma'suliyatli masaladir. Ko'pgina nikoh qurish yoshidagi yigit va qizlar ham sevishib, ham kelishuv asosida oila qurishni ma'qul ko'rishadi. Bu fikr psixologiyada ham ma'qullanadi. Bugun yoshlardan nikoh tuzish haqida so'rasangiz, avvalo bilim olish, kasb egallashga intilishining kuchlilikiga guvoh bo'lamiz. Bu quvonarli hodisa, albatta. Oila o'ta muhim narsa, uni qurishda ehtiyotkor bo'lish, mayda unsurlarga ham e'tibor berish, o'rganish, izlanish darkor. “Oila - O'YINCHOQ emas.” U baxtning beshigi, millat davomiyligi belgisi, hayot evolyutsiyasidir. Oilada farzand dunyoga kelishi ko'pgina holatlarda oilaning mustahkamlaydi, lekin ba'zi hollarda bir-birlaridan zerikib qolish hissi paydo bo'ladi. Bu esa har xil nizo va kelishmovchiliklarga sabab bo'ladi. Afsuski, bugungi kunda oilani O'YINCHOQ qiluvchilar ancha ko'payib qolishdi. Ajralishlar XX asrdan beri mavjud bo'lsada, bu holat XXI asrda avj nuqtasiga chiqdi. Nikohda avvalgi kelishuvlarning bo'lmaganligi, yoki buzilishi, o'zaro kelishmovchiliklar, moddiy qiyichiliklar va boshqa sabablarga ko'ra oilalar ajrimga yuz tutmoqda. Xo'sh bunga kim aybdor? Yoshlarmi, ota-onalar yoxud jamiyatmi? Nikoh tuzishdan maqsad birgalikda baxtli yashash, ammo bugun nikohni moddiy qurolga ega bo'lish, shunchaki niqob qilib olish holatlari ham uchramoqda. Mana yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda Buxoro viloyatida 16 yoshlik yigit va 17 yoshlik qizning nikoh to'yi tasvirlangan video lavhalarni ko'rdik. Bir qarashdayoq kelin va kuyovning yosh bola ekanligi, atrofdagi bolalarning ham ancha yoshligini payqaymiz. To'y qilib bergan ota-onalariga gap bo'lishi mumkin emas, to'y rosa katta mablag'ga qilingan ko'rinib turibdi. Albatta orzu-havas degan narsalar bor, ammo qonun ham o'z ishida javobgardir. Videolar ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgach, yoshlarning ota-onalariga tegishli choralar ko'rilgan, lekin shu to'ygacha bo'lgan yig'irlarda mahalla qayerda edi degan savol kommentariyalarda barchani qiynadi. Mushohada qilish o'zingizdan. Zero, “Har kim o'ziga tegishlisini oladi,”- deydi dono xalqimiz.

**Xulosa:** Maqoladan shunday xulosa chiqarish mumkinki, nikoh va oila munosabatlari o'ta muhim hodisa, unda o'ta ehtiyotkor, sezgir va mushohadakor bo'lmoq zarur. Chunki qurilajak oila jamiyatimizning bo'lagi, xalqimizning ichki bir qismi, kelajagimiz poydevori bo'ladi. Yoshlarga nikoh tuzish qonun-qoidalarini o'rgatish barcha kattalarning muhim vazifasidir. Yoshlarning har qanday vaziyatda qiyichiliklarga sabr-bardoshli bo'lishi oilaning mustahkam bo'lishida asosiy rolni o'ynaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “Oila psixologiyasi” Vasila Karimova TDPU Toshkent 2007.
2. “Ijtimoiy psixologiya” N. Ismoilova va D. Abdullayeva Toshkent 2013.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Toshkent 2023.
4. “Yosh va pedagogik psixologiya” o'quv-uslubiy majmua GulDPI 2022.
5. “Umumiy psixologiya” o'quv-uslubiy majmua GulDPI 2022.